



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING IJTIMOIIY-IQTISODIY JIHATDAN KAM TA'MINLANGAN OILALARNI ANIQLASH FAOLIYATI

Gadoymirodov Bekzod Obidjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Abdurazoqov Abdurahimjon Xosilbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti Toshkent sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20677092>

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada profilaktika inspektorining mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan, nizoli, notinch hamda ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarni aniqlash va ular bilan ishlash faoliyatining huquqiy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, oilalardagi ijtimoiy muammolarning huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta'siri, profilaktika subyektlarining o'zaro hamkorligi hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada mazkur toifadagi oilalarni erta aniqlash usullari va ularga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, ijtimoiy profilaktika, mahalla, huquqbuzarliklar profilaktikasi, notinch oila, nizoli oila, ajrim yoqasiga kelib qolgan oila, jamoat xavfsizligi, kam ta'minlangan oila, profilaktik chora-tadbirlar.

ABSTRACT. This article analyzes the legal and practical aspects of the activities of prevention inspectors in identifying and working with socially and economically vulnerable, conflict-prone, dysfunctional, and divorce-risk families within local communities. The study examines the impact of social problems within families on the occurrence of offenses, the cooperation of preventive entities, and the significance of social prevention measures. Furthermore, the article highlights methods for the early identification of such families and outlines key directions for the effective implementation of preventive measures aimed at ensuring public safety

Contact: 99 826 99 56





and social stability.

Keywords: prevention inspector, social prevention, local community, crime prevention, dysfunctional family, conflict-prone family, family at risk of divorce, public safety, low-income family, preventive measures.

Har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, fuqarolarda befarqlik va loqaydlik holatlariga barham berish orqali jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda har bir oilada mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining xavfsizligini ta'minlash, qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash va ularga nisbatan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy profilaktika tadbirlarining samaradorligi, avvalo, profilaktika obyektlarini o'z vaqtida va aniq belgilash hamda ularning xavf darajasini to'g'ri baholashga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 27 - son farmoniga asosan profilaktika inspektori vakolatli davlat organlari va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida har bir oilani bevosita joyida o'rgangan holda, fuqarolarning jamoat xavfsizligiga oid va huquqbuzarliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan muammolari va noroziliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarni ko'rib borishi belgilab o'tilgan.

Bu esa o'z navbatida profilaktika inspektoriga ijtimoiy profilaktika tadbirlarni samarali olib borish uchun mas'uliyat yuklaydi.





Profilaktika inspektori o'ziga biriktirilgan mahallada ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan oilalarni o'z vaqtida aniqlashi orqali, kelgusida ushbu oilalar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olishda ularga o'z vaqtida profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash imkonini beradi.

Ayniqsa mahalladagi doimiy nizoli oilalar bilan ishlashda ularning nizoni keltirib chiqqan omillarini to'g'ri aniqlash va unga nisbatan mahalla faollari bilan o'z vaqtida qo'llanilgan choralar, kelgusida ushbu oilada yoki unda yashayotgan shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldi olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabr kunidagi 754-son qaroring 2-ilovasiga asosan huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan ishlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan normalar keltirib o'tilgan.

Ushbu qarorga asosan, mahallada ajrim yoqasiga kelib qolgan notinch yoki nizoli oilalar bilan ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini o'z vaqtida to'g'ri qo'llanilmasa, "mahalla yettiligi"ga tegishliligi bo'yicha xulosalar berilmasa, huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi asosiy manba sifatida saqlanib qolinadi.

Profilaktika inspektorlari, mahalla raislari va xotin-qizlar faoli mahallada ajrim yoqasiga kelib qolgan notinch yoki nizoli oilalar bilan ishlashda asosiy subyektlar sanaaladi.

Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar – bu turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan, oila mustahkamligi izdan chiqqan va nikohning bekor qilinishi xavfi mavjud bo'lgan oilalardir.

Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar jamiyatda ijtimoiy muammolarni kuchaytirishi, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ularni erta aniqlash va yordam ko'rsatish huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.





Notinch oila - oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etilgan, oila-turmush munosabatlari doirasida nizoli masalalar mavjud bo'lgan yoxud surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan, ruxiy holati buzilgan shaxslar yashaydigan oila.

Bu oila ichida sog'lom munosabatlar buzilgan, doimiy janjallar, kelishmovchiliklar yoki huquqbuzarliklar kuzatiladigan oiladir. Bunday oilalarda er-xotin yoki boshqa oila a'zolari o'rtasida nizolar tez-tez chiqib turadi, ba'zan zo'ravonlik holatlari ham uchraydi. Shuningdek, oila a'zolaridan biri yoki bir nechtasi spirtli ichimlikka, giyohvand moddalarga yoki zaharvandlikka berilib ketgan, yoki ruhiy holati buzilgan bo'lishi mumkin.

Nizoli oilalar – bu turmush o'rtoqlar o'rtasida doimiy kelishmovchilik, janjal va tortishuvlar mavjud bo'lgan, oilaviy totuvlik izdan chiqqan oilalardir. Ular ajrim darajasiga yetmagan bo'lishi mumkin, lekin nizolar muntazam takrorlanishi natijasida bolalar tarbiyasi, oilaning ijtimoiy muhitdagi obro'yi va jamiyatdagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nizoli oilalar o'z vaqtida aniqlanmasa, ular tezda ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar toifasiga o'tishi mumkin. Shuning uchun profilaktik choralar orqali nizolarni kamaytirish va oilaviy muhitni tiklash juda muhim.

Bunday oilalarga xos belgilar:

- oilada janjal va keskinlikning muntazam mavjudligi;
- er-xotin bir-biriga nisbatan ishonchsizligi;
- oilaviy byudjetni yuritishda kelishmovchiliklar, moddiy taqchillik;
- bolalarga tarbiya berishda beparvolik, majburiyatlarni bajarmaslik;
- oila a'zolarining birida spirtli ichimlik, giyohvandlik, qimor kabi salbiy illatlarning mavjudligi;
- xiyonat yoki tashqi ta'sirlar tufayli oilaviy totuvlikning buzilishi;
- o'zaro hurmatning yo'qligi, er-xotin bir-birini mensimasligi;





– oila manfaatidan ko‘ra shaxsiy manfaatini ustun qo‘yish.

Ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalarni aniqlash usullari:

- jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudlarining chiqargan qarorlarini o‘rganish;
- mahalla faollari, uyboshi, ko‘chaboshi va qo‘shnilarning bergan ma‘lumotlari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganish;
- huquqbuzarliklarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning taqdimnomasi bilan tanishish;
- ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar va ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni o‘rganish;
- aholini “xonadonbay” o‘rganish natijasida olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish;
- himoya orderi berilgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rganish;
- «112» yagona dispetcherlik xizmati «102» hamda 1146 qisqa raqamli «ishonch telefoni»ga tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha murojaatlarni o‘rganish;
- «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlarining ma‘lumotlarini o‘rganish.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023y
2. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2014-yil 14-may, O‘RQ-371-son;
3. O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2019-yil 2-sentyabr, O‘RQ-561-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va



uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrdagi 754-son qarori;

6. Kurbanov M. N. Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olishda mahalliy hokimliklar, davlat organlari va tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish masalasi //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – T. 2. – №. 12-2. – S. 108-111;

7. Kurbanov M. N. Mahallalarda xavfsiz muhit va huquqbuzarliklar nibarvaqt oldini olish tizimi samaradorligining ilmiy-nazariy tahlili //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – T. 4. – №. 12. – S. 171-174;

8. Obidjon o'g'li G. B., Odil o'g'li R. R. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari //yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti. – 2025. – T. 1. – №. 2. – S. 342-345.